



JINOYAT PROTSESSUAL QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN YANGILIKLAR

Matqurbanova Nargiza Davronbekovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga so‘nggi yillarda kiritilgan muhim o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Xususan, 2025-yil 1-yanvardan boshlab tuman va shahar sudlarida tergov sudyasi institutining joriy etilishi, Jinoyat-protsessual kodeksining 311-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlar hamda 2041 va 2042-moddalarning qo‘shilishi atroflicha yoritilgan. Tergov sudyasining vakolatlari kengaytirilishi orqali sudgacha bo‘lgan jarayonda shaxsning huquq va erkinliklarini mustahkam himoya qilish, tergov organlari faoliyati ustidan mustaqil sud nazoratini o‘rnatishga erishilgani ta’kidlanadi. Shuningdek, raqamli va elektron dalillarni huquqiy tartibga solish masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Maqolada bu o‘zgarishlarning asosiy maqsadi “Inson qadri uchun” tamoyili asosida inson huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish va jinoyat protsessini shaffoflashtirishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: tergov sudyasi, sud nazorati, inson huquqlari, raqamli dalillar, elektron ma’lumotlar, Jinoyat-protsessual kodeksi, ehtiyot chorasi, shaffoflik, qonuniylik.

NOVELTIES AND KEY AMENDMENTS INTRODUCED TO THE CRIMINAL PROCEDURE LEGISLATION

Matqurbanova Nargiza Davronbekovna

Student of University of World Economy and Diplomacy

Abstract. This article analyzes the key amendments introduced to the Criminal Procedure Legislation of the Republic of Uzbekistan in recent years. Particular attention is paid to the introduction of the investigative judge (tergov sudyasi) position in district and city courts from January 1, 2025, the expansion of powers under Article 311, and the addition of new Articles 2041 and 2042 regulating digital and electronic evidence. The study emphasizes that these changes aim to strengthen the protection of human rights and freedoms during the pre-trial stage, establish independent judicial oversight over investigative bodies, and ensure transparency and legality of procedural actions. The reforms are implemented within the framework of the “Human Dignity” principle.

Keywords: investigative judge, judicial control, human rights, digital evidence, electronic data, Criminal Procedure Code, preventive measures, transparency, legality.




НОВОВВЕДЕНИЯ И ВАЖНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ

Матқурбанова Наргиза

Университет мировой экономики и дипломатии

В данной статье анализируются важные изменения, внесённые в уголовно-процессуальное законодательство Республики Узбекистан в последние годы. Особое внимание уделяется введению с 1 января 2025 года института следственного судьи (tergov sudyasi) в районных и городских судах, расширению полномочий согласно статье 311 УПК, а также введению новых статей 2041 и 2042, регулирующих цифровые и электронные доказательства. Отмечается, что данные реформы направлены на усиление защиты прав и свобод человека на досудебной стадии, установление независимого судебного контроля за деятельностью органов следствия и обеспечение прозрачности и законности процессуальных действий. Реформы осуществляются в рамках принципа «Честь и достоинство человека».

Ключевые слова: следственный судья, судебный контроль, права человека, цифровые доказательства, электронные данные, Уголовно-процессуальный кодекс, меры пресечения, прозрачность, законность.



O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlarning asosiy sababi, avvalo, inson huquq va erkinliklari ta’minlashining kafolatlarini mustahkamlash hamda zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda jinoyat protsessual bosqichlarini adolatli tarzda, shaffoflik va qonuniylik bilan olib borilishini ta’minlashdir. Qonunchilikka kiritilgan o‘zgarishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 31, 31¹⁻ moddalariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 10-iyun da imzolangan 89 – sonli farmoniga binonan 2025 – yil 1 – yanvar sanasidan joylarda (tuman, shahar sudlarida) tergov sudyasi lavozimi joriy etildi va ularning vazifasi sifatida jinoyat protsessida sudgacha bo‘lgan jarayonning odilona tarzda amalga oshirilishini ta’minlash etib belgilandi.

Avvalgi tahrir:

31-modda. Sudyaning vakolatlari

Sudya yakka o‘zi yoki sud tarkibida ish tutib, ushbu Kodeksning 29-moddasida nazarda tutilgan vakolatlarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, sudya ishni sud muhokamasiga

tayyorlash bilan bog‘liq harakatlarni bajaradi, sud majlisida raislik qiladi va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarni amalga oshiradi.

Joriy tahrir:

31¹-modda. Tergov sudyasining vakolatlari

Tergov sudyasi yakka o‘zi ish tutib, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga: qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; ayblanuvchining tibbiy muassasada bo‘lishi muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; murdani ekskumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da’vogarning) ko‘rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to‘g‘risidagi iltimosnomalarini ko‘rib chiqish; tintuv o‘tkazish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to‘g‘risidagi iltimosnomalarni ko‘rib chiqish; mol-mulkni xatlash to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish kiradi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan vakolatlar tergov sudyasi tomonidan ushbu Kodeksning 416 va 417-moddalari tartibida qo‘shimcha protsessual harakatlarni bajarish chog‘ida ham amalga oshiriladi.

Ushbu lavozim joriy etilishidan ko‘zlangan maqsad inson huquqlarini himoya qilish borasida “Inson qadri uchun” tamoyilini oldinga qo‘ygan holda sud va huquqni muhoafa qilish organlarida shaxsning huquq va erkinliklari muhofazasini qat‘iylashtirish, shuningdek, sud-tergov amaliyotida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning huquqlari va shaxsiy daxlsizligini ta‘minlash, tergov ustidan mustaqil nazorat tizimini yaratish zarurati edi va shu paytgacha ko‘zlangan maqsadga to‘laqonli bo‘lmasada, yetarli darajada erishildi deyish mumkin.

Shu bilan birgalikda, ushbu moddaning ikkinchi qismiga O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-yanvardagi 1022-sonli “Ayrim qonun hujjatlariga shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonuniga binoan o‘zgartirishlar kiritilgan.

Avvalgi tahrir:

31¹-modda. Tergov sudyasining vakolatlari



Tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Joriy tahrir:

31¹-modda. Tergov sudyasining vakolatlari

Tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi.

Tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga: qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ushlab turish muddatini qirq sakkiz soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; O'zbekiston Respublikasidan chiqish huquqini vaqtincha cheklash haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lishi muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; prokurorning guvoh va jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqish; tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish; mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish kiradi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan vakolatlar tergov sudyasi tomonidan ushbu Kodeksning 416 va 417-moddalari tartibida qo'shimcha protsessual harakatlarni bajarish chog'ida ham amalga oshiriladi.

Ushbu o'zgarishga ko'ra, endilikda qamoqqa olish, uy qamog'i kabi ehtiyot choralarini qo'llash, ushlab turish muddatini uzaytirish, shuningdek, tintuv va mol-mulkni xatlash kabi muhim vakolatlar faqat tergov sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladigan bo'ldi va bu sudgacha bo'lgan jarayonlarda shaxsning erkinliklarini cheklash bilan bog'liq bo'lgan majburlov choralarining odilona tarzda amalga oshirilayotgani ustidan nazoratni kuchaytiradi va natijada tergov organlarining o'zboshimchaliklarining oldi olingan holda inson huquqlari ta'minlanadi.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi 1003-sonli "Ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qonuniniga ko'ra, Jinoyat protsessual kodeksining 204 – moddasiga o'zgartirish kiritildi.

Oldingi tahrir:

204-modda. Yozma dalillar

Mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan soʻz, raqam, chizma yoki boshqa shaklda yozilgan va ish uchun ahamiyatli boʻlishi mumkin boʻlgan maʼlumotlarni saqlash, oʻzgartirish, berish uchun moʻljallangan hujjat yoki boshqa yozuvlar yozma dalil hisoblanadi.

Tergov harakatining bayonnomasi, sud majlisining bayonnomasi va ularning ilovalari ham yozma dalil hisoblanadi.

Ushbu Kodeksning 203-moddasida koʻrsatilgan alomatlari, belgilari, izlari boʻlgan hujjatlar va boshqa xatlar ham ashyoviy dalil boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Joriy tahrir:

204¹-modda. Elektron maʼlumotlar

Elektron maʼlumotlar elektron qurilmalardan va axborot tizimlaridan, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yaratiladigan, ishlov beriladigan hamda saqlanadigan maʼlumotlardir.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa shaxslar elektron maʼlumotlarni ushbu maʼlumotlarning koʻchirma nusxasini elektron jismdan elektron maʼlumotlar mavjud boʻlgan boshqa elektron jismga olish orqali taqdim etishga haqli.

Tergovga kadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud taqdim etilgan elektron maʼlumotlarni mutaxassis ishtirokida qabul qilib oladi hamda elektron maʼlumotlar mavjud boʻlgan birlamchi elektron jismlarni koʻzdan kechiradi.

Ish uchun ahamiyatga ega boʻlmagan elektron maʼlumotlar mavjud boʻlgan elektron jismlar egalariga darhol qaytarib beriladi.

204²-modda. Raqamli dalillar

Ish uchun ahamiyatga ega boʻlgan holatlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlar mavjud boʻlgan elektron maʼlumotlar, shu jumladan elektron tarzidagi fayllar, audio-, videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmogʻida saqlanayotgan maʼlumotlar, shuningdek boshqa elektron maʼlumotlar raqamli dalillardir.


Raqamli dalildan koʻchirma nusxa olishga, basharti uning yaxlitligi va aynan oʻxshashligi saqlansa, yoʻl qoʻyiladi.

Raqamli dalildan koʻchirma nusxa olishga yoʻl qoʻyilishi oʻzidan mazkur koʻchirma nusxa olingan raqamli dalilning asli mavjudligi bilan taʼminlanadi.

Guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa shaxslar raqamli dalillarning koʻchirma nusxalarini qogʻozda chop etilgan shaklda taqdim etish huquqiga ega. Bunda raqamli dalilning qogʻozdagi shakli yozma dalil deb hisoblanishi mumkin emas.

Tergovga kadar tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud jarayonida tuzilgan protsessual bayonnomalarga ilova qilingan, elektron maʼlumotlar tarzida shakllantirilgan audio-, videoyozuvlar ham raqamli dalillar hisoblanadi.

Raqamli dalilning koʻchirma nusxasi ish materiallari bilan birga saqlanadi.



Ushbu moddalarning qo‘shilishiga sabab tez sur‘atlarda o‘zgarib kelayotgan dunyoning texnologiyalarga tayanishi, shu sababdan hozirgi kunda jinoyatlarni fosh qilishda raqamli texnologiyalardan va ulardagi yozuvlardan foydalanishga bo‘lga ehtiyojdir. Shuningdek, shaxsiy electron moslamalarni olib qo‘yish sud qarori bilan amalga oshiriladi va ushbu o‘zgarishlar natijasida raqamli dalillarni to‘plashning shaffof tartibi yaratildi, mutaxassis ishtirokisiz olingan electron ma‘lumotlar nomaqbul dalil deb topilishi belgilandi. Bu tergov sifatini oshirib, dalillar soxtlashtirilishini oldini olishga ko‘maklashmoqda.

Umumiy xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessi qonunchiligiga kiritilayotgan har bir o‘zgarishlar inson qadri uchun, shaxsning huquq va erkinliklarining qat‘iy himoyasini ta‘minlash, sudgacha bo‘lgan protsess bosqichlarini qonuniy tarzda odilona amalga oshirishdir.